

**FITRAT IJODINI O’TISHDA INNOVATSION  
USULLARDAN FOYDALANISH**

**Saitova Barnoxon Axmadjonovna**

*Andijon davlat universiteti akademik litseyi*

*Ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Bugungi kun har bir sohada innovatsiyalar yaratishni talab qiladi. Ta’lim sohasidagi inerfaol metodlarni tatbiq qilgan holda ona tili va adabiyot mashg`ulotlarini o`tish pedagogdan yuqori kasbiy mahorat talab qiladi.

Ushbu maqolada Fitrat ijodini innovatsion usullar orqali o`tish metodlari yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Fitrat , jadid, «Abulfayzxon», drama; «Qarama-qarshi munosabar», «Qarorlar shajarasasi», «Xonning tushi» metodlari

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: «Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug` ajdodlarimiz bor».<sup>1</sup> Abdurauf Fitrat ana shunday ajdodlarimizdandir. U XX asrning boshlari o’zbek adabiyoti tarixida o’z o’rniga ega. Bu ulug` ajdodimizning o’zbek adabiyoti rivojiga qo’shgan ulushini hozirgi yoshlar bilishi juda muhimdir. Chunki u hozirgi o’zbek adabiyotining rivojlanishiga, uning nazariy yo’nalishlarini belgilab ko’rsatishga katta hissa qo’sha olgan qomusiy ijodkorlardan biridir. Ma’lumki, Fitrat badiiy adabiyotning mavjud barcha turlarida: nazmda, nasrda, dramaturgiyada birdek qalam tebratdi.

Fitratning «Abulfayzxon» tragediyasi o’zbek adabiyoti tarixida katta voqeа bo`ldi. Uni o’qitish uchun akademik litseylar uchun oquv dasturlarida 4 soat ajratilgan. Bunda assosiy e’tiborni quyidagi masalalarga qaratish mumkin:

1. Fitratning serqirra iste’dod va qomusiy bilim sohibi ekanligi haqida ma’lumot berish.
2. Fitrat dramaturgiyasi haqida ma’lumot yetkazish.
3. «Abulfayzxon» tragediyasining yaratilishi, asarda aks etgan tarixiy davr to’g`risida tushuntirish.
4. Dramada Abulfayzxon obrazining o’rni va hukmdor sifatida tasvirlanishiga xos belgilarni aniqlash.
5. Dramada hukmdor, davlat va xalq mavzusining ifodalanishi bilan bog`liq o’rinlarni izohlash.

<sup>1</sup> Adabiyot va san`at, madaniyatni rivojlantirish  xalqimiz manaviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuvdagi maruzasi.  O’zbekiston adabiyoti va san`ati gazetasi.  2017 yil, 4 avgust. – №32 (4431). – B.1-4.

6. Abulfayzxon obrazida sho’ro davlati rahbarlari olib borajak qatag`onning bashorat qilinishini ko’rsatib berish.

7. «Abulfayzxon» insoniyatni ogohlikka chaqiruvchi asar ekanini asoslash.

8. Fitratning dramaturg sifatidagi mahoratini baholash.

9. «Abulfayzxon» tragediyasi o’zbek adabiyotshunoslari tomonidan qanday talqin qilinganiga e’tiborni tortish.

Shuningdek, dars jarayonida o’quvchilarga quyidagilar yuzasidan nazariy ma’lumot yetkazish mumkin:

a) tragediya haqida tushuncha;

b) tragik obraz haqida tushuncha.

Mavzuni yoritish jarayonida yuqorida ko’tarilgan masalalarni yechish uchun darslikda berilgan parchalardan ko’chirmalar olish maqsadga muvofiq, deb o’ylaymiz. Ularni tarqatmalar shakliga keltirish va o’quvchilardan izohlab berishni talab qilish mumkin.

Ayniqsa, dramaning tiliga xos xususiyatlarni ko’rsatish uchun lug`atlardan foydalanish kerak bo’ladi. agar asar tilining lug`at namunasi o’qituvchi va o’quvchilar hamkorligida tuzilsa, darsning samaradorligi ortadi.

Asarda tasvir vositalarining o’rni va ahamiyati haqidagi ko’rgazmali qurolning eskizini ham tayyorlash mumkin. U asarni tahlil qilishda, o’rganilishi va izohlanishi lozim bo’lgan adabiy-nazariy tushunchalarni aniqlashda yordam beradi.

Dramani o’rganishda uni ifodali o’qish, izohli o’qish turlaridan foydalanishning ham o’z o’rni va ahamiyati bor.

Dramada keltirilgan tabiat tasviri, qahramonlarning portreti bilan bog`liq o’rinlarni topish va izohlash qahramonlar mohiyatini, ruhiyatini, ularning badiiy-estetik tomonlarini tushunish uchun muayyan qo’shimcha imkoniyatlar beradi.

Biz «Abulfayzxon» tragediyasini o’rganish va o’rgatishning quyidagi variantini taklif qilamiz:

1. Kirish suhbat: dramatik asarning o’ziga xos xususiyatlari.

2. Fitratning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’ruza yoki suhbat.

3. Dramaning alohida sahnalarini o’qish va tahlil qilish.

4. Asar haqidagi yakunlovchi dars.

5. Barchasining yakuni sifatida o’quvchilarning ijodiy yozma ishi.

Fitrat ijodini yoritishda quyidagi innovatsion usullardan foydalanish mumkin.

**«Qarorlar shajarasi» metodi .** Bu metod quyidagi shartlar asosida qo’llaniladi:

1. O’qituvchi mashg`ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Masalan, Fitrat Abulfayzxon shaxsini, uning qatag`on siyosatini yoritishda Stalin qilmishini nazarda tutganmi?

2. Fitratning qaysi asarlari tilga, qaysilari adabiyotshunoslikka, qaysinisi tarixga yoki pedagogikaga aloqadorligi farqlanib, guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)lar asosida plakatlar tayyorlanadi.

Keyingi ishda o’quvchilar 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat kichik guruhlarga ajratiladi. Muammoning hal etilishi, bu borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

Nega yozuvchi o’z asarlarida shayton, olbosti obrazlaridan ko’p foydalangan? Bu savolga javob topishda guruhlarning har bir a’zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a’zolari bir to’xtamga kelib oladilar.

4. Nega Fitrat «Munozara» nomi bilan asar yaratgani munozaraga qo’yiladi. Munozara uchun vaqt ajratiladi. Vaqt nihoyasiga etgach, har bir guruh a’zolari o’z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o’qituvchi rahbarligida barcha o’quvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.

Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug`ilgudek bo’lsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo’lsa, o’qituvchi buning sababini izohlaydi.

**«Qarama-qarshi munosabat» metodi.** Bu o’yin-topshiriq Fitrat asarlari mohiyatiga ko’ra o’zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma’lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Metodni qo’llash uchun jadval tuziladi. Aytaylik, bunda mavzuni Fitratning «Abulfayzxon» dramasi qahramonlarining qarashlari, xatti-harakatlaridagi qarama-qarshi bildirilgan fikrlarni topib jadvalga joylashtirish topshirig`i berilishi mumkin. Buning uchun o’quvchilar o’zlari o’qib o’rgangan Fitrat asarlari mavzularini yodga olib, jadval yaratadilar va uning qaysi asarida qanday fikr berilganini bu jihatdan ma’lum qiladilar.

**«Xonning tushi» metodi.** Buxoroda qo’rqqoq, farosatsiz, qonxo’r bir xon yashar ekan. U bir kuni tush ko’ribdi. Tushiga arvoхlar kiribdi. Garchi, ko’rgan tushining xosiyatli yoki xosiyatsiz ekanligini aniq bilmasa-da, ko’ngli g`ashlanibdi. Xizmatkorlariga yurtning eng mashhur ta’birchilarini topib kelishlarini buyuribdi. Xizmatkorlar munajjim-ta’birchilarini topib kelishibdi. Xon ulardan ko’rgan tushining ta’birini so’rabdi. Lekin ularning ta’biridan ko’ngli to’lmagan xon, barini o’limga buyuribdi. Har narsaga «Jallod!!!» deb chaqirish uning sevimli so’zi ekan. Xon qanday tush ko’rgan? Shu o’rinda Abulfayzxon tushini tahlil qilish mumkin.

Abdurauf Fitrat o’zbek adabiyoti va madaniyati, so’z va teatr san’ati tarixida o’ziga xos nom qoldirgan qomusiy ijodkordir. Shuning barobarida, u xalq og`zaki badiiy ijodi, badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanib, milliy hayot

manzaralarini jonli lavhalarda aks ettira olgan mahoratli ijodkor hamdir. Shuni inobatga olib, uning o’zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo’shgan ulushini yoshlarga o’rgatish zarurdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. Ilmiy-tadqiqiy maqolalar. □ T.: A.Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. □ 285 b.
2. Boltaboyev H. Qadimgi turkiy manbalar Fitrat talqinida. So’zboshi // Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. □ T.: Mumtoz so’z, 2008. □ B.3-9.
3. Karimov N. Istiqlolni uyg`otgan shoir. □ T.: Ma’naviyat, 2000. □ 88 b.
4. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. □ T.: O’zbekiston, 2008. □ 532 b.
5. Umarova M. Fitratning «Abulfayzxon» fojiasida badiiy vaqt talqini // Til va adabiyot ta’limi. □ Toshkent, 2009. □ 4-son. □ B. 34-46.
6. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. □ T.: O’qituvchi, 1995. □ B.82-83.
7. O’zbek tilining izohli lug`ati. Besh jiddlik. IV jild. □ T.: O’zME, 2008. □ 608 b.
8. O’zbekiston milliy enstiklopediyasi. Harfi F. □ T.: «O’zbekiston milliy enstislopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. □ B.171-172.
9. Qosimov B. Fitrat // Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat. □ T.: Sharq,
10. G`aniyev I. Fitrat va fitratshunoslik. □ T.: Fan, 2005. □ B.71.
11. <https://netref.ru/zbekiston-respublikasi-olij-va-rta-mahsus-talim-vazirligi-arsh.html?page=3>
12. www.hozir.org/o’zbek-jadid-adabiyoti.html